# TURK ELI

*International Scientific Journal*




Volume 1 | Issue 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

# TURK ELI
# INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
**Sarvar Ispahi**

Editor-in-Chief
**Jenishbek Duysheev**

Deputy Editor in-Chief
**Rahmonali Hasanov**

**Editorial Board:**

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

Technical Editor
**Laziz Baxtiyorov**

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science

# Contents


| | | |
|---|---|---|
| **N.Erdenebayar**<br>**B.Jargalsaikhan** | Skiing Tradition of Altai Uriankhai | **4** |
| **E.A.Avazov**<br>**Zh.A.Duisheev** | The Andijan Uprising of 1898: Main Issues of Discussion in the Historiography of the Colonial and Soviet Era | **7** |
| **Sh.Kh.Sattarov** | Service Diversification And Economic Efficiency | **13** |
| **S.Dj.Saidova** | Leadership Competence and Creativity in Managing Challenging Personnel in Higher Education Institutions | **16** |
| **Kh.I.Mamadaliyev** | Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh | **21** |
| **A.B.Zuftarov** | Development of The Service Sector in The Context of the Digital Transformation of Azerbaijan's Economy | **24** |
| **I.K.Usarov**<br>**Sh.T.Karimova**<br>**M.Y.Badalbayeva**<br>**A.A.Beknazarov**<br>**Sh.T.Uljayeva** | Enhancing Students' Lexical Competence Through Systematic Use of Authentic Texts: a Task-based and Corpus-supported Methodology | **29** |
| **B.R.Karimov** | Challenges in the Development of Turkic Civilization Languages: Perspectives on the Formation of a Common Turkic Language and a Unified Turkic Script System | **32** |
| **N.Juraev** | The Philosophy of the Soul and the Heart in Ibn Sina's Thought | **35** |
| **N.Nazarov** | Interethnic Relations and Societal Development in Central Asia | **42** |
| **Kh.J.Barotova** | The Representation of Nature in the Epic Farhod and Shirin | **46** |
| **Sh.Kh.Buriev** | Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025) | **50** |
| **K.M.Gulomova** | Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students | **53** |
| **D.S.Saparboeva** | Organizing Didactic Games in Primary Education | **56** |
| **İ.H.Cəbrayılov** | Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching | **58** |
| **O.Musaev** | Peculiarities of National Policy Implementation in Multinational Countries | **62** |
| **E.Sultanova**<br>**R.Hasanov** | The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage | **66** |
| **O.Musaev**<br>**Z.Murodova** | The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation | **70** |
| **R.Yarkulov** | Mechanisms for Improving Students' Creative Engagement through Digital Technologies: A Case Study of the Logistics Education Program | **74** |
| **R.Hasanov** | The Person of Amir Temur and His Martyr Art and State Administration | **79** |
| **R.Khalikova** | Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources | **81** |

# Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students

**Gulomova Komila Makhmatjanovna** (PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor)[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

***Abstract.***
The article examines the scientific and pedagogical foundations for the development of students' independent thinking in the higher education system. It analyzes the essence of independent thinking, the main factors influencing its formation, as well as ways to effectively organize the educational process. It also substantiates the importance of modern pedagogical approaches and educational technologies in developing students' analytical and creative thinking.
**Keywords:** higher education, independent thinking, creative approach, competence, educational technologies, student activity, interactive methods, independent learning

# Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari

**Gulomova Komila Maxmatjanovna** (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Tashkent, Uzbekistan

**Annotatsiya.**
Maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Unda mustaqil fikrlashning mohiyati, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.
**Kalit so'zlar.** oliy ta'lim, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, talaba faolligi, interfaol metodlar, mustaqil ta'lim

**Kirish.** Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan, tahliliy va tanqidiy fikrlashga ega mutaxassis sifatida tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda raqamli texnologiyalarning ta'limga chuqur kirib borishi talabalardan tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, balki ularni mustaqil tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham talab etmoqda.

Mustaqil fikrlash – bu shaxsning o'z bilimiga, tajribasiga va mantiqiy tahliliga tayangan holda xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda yangicha yondashuvlarni ilgari surish qobiliyatidir. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu sifatni rivojlantirish ta'lim jarayonining nafaqat didaktik, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini ham kuchaytiradi. Shu jihatdan, mustaqil fikrlashni shakllantirish pedagogik jarayonning markaziy komponentlaridan biri sifatida qaraladi[1].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi turli yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, unda interfaol ta'lim metodlari, muammoli o'qitish texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Biroq, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur bo'lib qolmoqda[1]. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim va raqamli resurslardan foydalanishning imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning intellektual faolligini oshirish hamda ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qilishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mustaqil fikrlash nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va yangi xulosalar chiqarish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli ta'lim jarayoni talabalarda faollik va tashabbuskorlikni kuchaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Mazkur jarayonda o'qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki talabaning fikrlash jarayonini yo'naltirish, unga muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil yechim topishga undashdan iboratdir. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi jahon pedagogika fanida keng o'rganilgan bo'lib, bu borada turli mamlakat olimlari tomonidan nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

G'arb pedagogikasida J. Dyui mustaqil fikrlashni ta'lim jarayonining markaziy elementi sifatida ko'rib, "o'quvchi faol fikrlash jarayoniga jalb etilgandagina haqiqiy bilim shakllanadi" degan g'oyani ilgari suradi[2]. U muammoli vaziyatlar asosida

tashkil etilgan ta’lim talabaning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishini ta’kidlaydi.

L. S. Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslanib, mustaqil fikrlash avvalo muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini, “yaqin rivojlanish zonasi” orqali rivojlanishini ilmiy asoslab bergan[3].

B. Blumning taksonomiyasi fikrlash jarayonini oddiy bilishdan yuqori darajadagi tahlil, sintez va baholashgacha bo‘lgan bosqichlarda izohlaydi. K. Rodjers esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda talabaning erkin fikrlashi va ichki motivatsiyasi muhimligini alohida ta’kidlaydi[3].

Rus pedagog olimlari S. L. Rubinshteyn, L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, D. B. Elkonin, A. N. Leontyevlarning ilmiy qarashlarida fikrlash faoliyati shaxsning amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Xususan, V. V. Davydov nazariy fikrlashni rivojlantirishni ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatib, umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi[4].

O‘zbek pedagog olimlari ham ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, N. Sayidahmedov pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish orqali talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi. A. Jalolov didaktik jarayonda interfaol metodlardan foydalanish talabaning kognitiv faolligini oshirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Sh. Sharipov mustaqil ta’limni tashkil etish va talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish muhimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan[6].

O‘zbek olimlaridan B. Xodjayev pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi[7]. M. To‘xtaxo‘jayev esa ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish metodlari talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ilmiy asoslab bergan[8]. Shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o‘quv topshiriqlarining mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Muammoli vazifalar, amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy topshiriqlar talabalarning bilimni chuqurroq anglashiga va uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashiga yordam beradi. Bu esa ularning o‘quv materialiga nisbatan ongli yondashuvini shakllantiradi. Talabalarning o‘z ustida ishlashi va mustaqil ta’lim faoliyati ham fikrlash jarayonining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mustaqil izlanish, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalari talabaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha olimlar mustaqil fikrlashni rivojlantirishni ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Ularning qarashlarida interfaol ta’lim, muammoli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika hamda kognitiv rivojlanish nazariyalari asosiy o‘rin tutadi. Bu esa oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga kompleks, ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

**Muhokama.** Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi oliy ta’lim tizimining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayon faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois mustaqil fikrlashni rivojlantirish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur.

Talabalarning fikrlash faolligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va tanlangan metodlariga bog‘liq. An’anaviy ma’ruza shakllari bilim berishda muhim rol o‘ynasa-da, ular talabaning mustaqil tahlil qilish imkoniyatlarini to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shu sababli o‘quv jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minlaydigan, uni izlanishga undaydigan topshiriqlar va vaziyatli mashg‘ulotlar ulushi ortib borishi lozim. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlash darajasi ularning motivatsiyasi va o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlanadi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar muammolarni chuqurroq tahlil qiladi, muqobil yechimlarni izlaydi va o‘z nuqtai nazarini asoslashga harakat qiladi. Aksincha, faqat tashqi talablar asosida o‘qiydigan talabalarda fikrlashning yuzaki bo‘lishi kuzatiladi[7].

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mustaqil fikrlashni rivojlantirishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Raqamli ta’lim resurslari, elektron platformalar va interaktiv vositalar talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil tekshirish, solishtirish va kengaytirish imkonini beradi. Biroq texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularni faqat axborot manbai sifatida emas, balki tahlil va ijodiy faoliyat vositasi sifatida qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayonida individual yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish tezligi turlicha bo‘lgani uchun, pedagogik jarayon ham moslashuvchan va differensial bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llash, dalillarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv natijasida talabalar tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni izlovchi va yaratuvchi subyektga aylanadi. Shu bilan birga, guruhli muhokamalar, debatlar va loyiha faoliyati talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, turli nuqtai nazarlarni solishtirish hamda ularga nisbatan obyektiv baho berish imkonini yaratadi.

Mustaqil fikrlashning rivojlanishi talabaning akademik muvaffaqiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Fikrini erkin ifoda eta oladigan, axborotni tanqidiy baholaydigan va mustaqil qaror qabul qilishga qodir talabalar o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadi. Ular murakkab muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni namoyon etib, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida zarur bo‘lgan kompetensiyalarni samarali egallaydi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, zamonaviy metod va vositalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, refleksiv faoliyatni tashkil etish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishning muhim omillaridan sanaladi. Talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, erishgan natijalarini baholashi va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi uning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini mustahkamlaydi. Natijada talaba o‘quv jarayonida faol pozitsiyani egallab, uzluksiz ta’lim olishga tayyor shaxs sifatida shakllanadi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonning samaradorligi innovatsion pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarining uyg‘un qo‘llanilishiga bog‘liq.

**Tahlillar va natijalar.** Oliy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga doir holatlar tahlil qilinganda,

ularning o‘quv faoliyatidagi yondashuvi va topshiriqlarni bajarish uslubi muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rindi. Talaba faqat tayyor ma’lumotni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, uni qayta ishlash va o‘z nuqtai nazarini shakllantirishga undalganda, fikrlash jarayoni ancha faollashadi.

Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, muammoli va ijodiy yondashuv talab qiladigan topshiriqlar talabalarda mustaqil xulosa chiqarish, solishtirish va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday vazifalarni bajarish jarayonida talabalar berilgan ma’lumotni tahlil qilishga, turli yechimlarni solishtirishga va eng maqbul variantni tanlashga o‘rganadilar.

Shuningdek, birgalikda bajariladigan o‘quv topshiriqlari ham fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Talabalar o‘z fikrini bayon qilish, boshqalarning qarashlarini tinglash va ularni baholash jarayonida o‘z fikrlash doirasini kengaytiradi hamda mantiqiy fikrlashga yaqinlashadi[6]. Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, mustaqil ishlashga ko‘proq e’tibor qaratilgan o‘quv jarayonida talabalar o‘z bilimini chuqurroq anglaydi, uni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga harakat qiladi va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Bu esa ularning o‘quv materialini faqat yodlash emas, balki tushunish va qo‘llash darajasiga ko‘tarilishiga yordam beradi.

**Xulosa.** Oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi, balki raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosiy sharti sifatida qaraladi. Chunki mustaqil fikrlay oladigan talaba o‘z bilimiga tayanib qaror qabul qiladi, murakkab vaziyatlarda yo‘l topa oladi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surishga qodir bo‘ladi.

Talabaning fikrlash faoliyati uning o‘quv jarayonidagi ishtiroki, topshiriqlarga yondashuvi va bilimni qabul qilish uslubiga bevosita bog‘liq. Shu sababli ta’lim jarayonida faqat ma’lumot uzatish emas, balki uni anglash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda talabaning shaxsiy mas’uliyati ham muhim o‘rin tutadi. O‘z ustida ishlashga intilish, izlanish va o‘z fikrini asoslashga harakat qilish jarayonning samaradorligini oshiradi hamda bilimning barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u ta’lim mazmuni, o‘qitish usullari va talabaning faolligi uyg‘unligida yuqori natija beradi. Bunday yondashuv oliy ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ijodkor va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

## References


1. Karimov A. A. Talabalarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – Ilmiy xabarlar, 2022. – № 4. – 78–84-b.
2. Brookfield S. D. Developing Critical Thinkers in Higher Education. – Journal of Higher Education Research, USA, 2019. – Vol. 45, No. 2. – pp. 133–148.
3. Смирнов В. И. Формирование самостоятельного мышления студентов в цифровой образовательной среде. – Педагогика и психология образования, Россия, 2021. – № 3. – с. 52–67.
4. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2005. – 352 с.
5. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – Москва: ИНТОР, 1996. – 544 с.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 192 b.
7. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 368 b.
8. To‘xtaxo‘jayev M. Pedagogika (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 312 b.